

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Haydarov Javlon Avlayor o'g'li

Mustaqil izlanuvchi

negga_22@inbox.ru

+998909670405

Annotatsiya:

Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tizimini samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni siyosiy rejim, siyosiy institutlarining barqarorligi va ular bajaradigan funksiyalar orqali siyosiy; inson huquq va erkinliklari, xalqning farovon turmush tarzini qonuniy kafolatlanganligi bilan huquqiy; siyosiy qadriyatlar, manfaatlar va ahloq me'yorlariga asoslangan xalqning ishonchi kabi jarayonlar orqali namoyon bo'lish mexanizmlari ochib berilgan. Shu bilan birga aholiga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish hamda davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayonida demokratik saylovlarning amal qilishi, ta'sirchan jamoatchilik nazorati, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik konsensusi kabi siyosiy texnologiyalarni takomillashtirish barqaror siyosiy hokimiyatning kafolati bo'lgan institutsional legitimlikka xizmat qilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Siyosiy, menejment, boshqaruv, hokimiyat, demokratlashtirish, xorij tajribasi, hamkorlik.

So'nggi yillarda konstitutsiyaviy qonunchilikka kiritilgan yangi institutlar davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishda, hukumat tuzilmalari (parlament, prezident, hukumat) o'rtasidagi munosabatlarning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuni davlat hokimiyati tizimini yanada demokratlashtirish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi. Asosiy qonunning 98-moddasiga islohotlarning oldingi bosqichida kiritilgan o'zgartishlar hokimiyat sub'ektlari o'rtasida vakolatlarni munosib taqsimlanishiga erishishda muhim rol o'ynadi. 2019-yil boshida, O'zbekistonda Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida Birlashgan Arab Amirligi bilan qo'shma dasturi tashabbusi bo'yicha say harakatlar boshlandi. Vazirliklar, idoralar, iqtisodiy organlar va ta'lim



muassasalari vakillaridan iborat O‘zbekiston delegatsiyasi Birlashgan Arab Amirliklariga “Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish” hukumatlararo dasturi ishchi guruhining ikkinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi[1].

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan talay islohotlar amalga oshirildi. Boshqa omillar qatori mazkur o‘zgarishlar ham muvaffaqiyatlarimizga keng yo‘l ochdi. Lekin tizimni takomillashtirish borasidagi jarayonlar to‘xtamagani, bu borada ham xotirjamlikka berilib qolmaganimizni alohida qayd etish zarur. Prezidentimiz 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasida shu haqda gapirib, yanada ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tishni taklif etganligini sohadagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Murojaatnomada, shuningdek, ilgari e‘tibordan chetda qolib, “yo‘q bo‘lib ketish” arafasida bo‘lgan sohalarni “oyoqqa turg‘izish” maqsadida olti yil davomida yangi vazirlik va idoralar tashkil qilingani, endilikda “qo‘l boshqaruvi”dan — aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o‘tish vaqti kelgani ta’kidlandi.

Darhaqiqat, davlat boshqaruvining markazlashishi vazirlik va idoralar vakolatlarining bir-birini takrorlashi, agentliklarning haddan ortiq ko‘payib ketishi, byurokratiyaning kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Ana shularni e‘tiborga olsak, davlatimiz rahbarining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi farmoni ma‘muriy islohotlarni izchil davom ettirish yo‘lida o‘z yechimini kutayotgan ayrim masalalarni to‘liq hal etishga imkon yaratishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjatda belgilangan vazifalar partiyamiz dasturiy maqsadlariga, demakki, elektoratimiz manfaatlariga hamohang.Zero,O‘zLiDePning mazkur yo‘nalishdagi ustuvor maqsadlaridan biri O‘zbekistonning davlat boshqaruvi sifati yuqori darajaga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan dunyodagi 30 ta davlat qatoriga kirishiga erishishdir.

Xususan, farmonda vazirlik va idoralar rahbarlari uch hafta muddatda har bir vazirlik va idora faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkillashtirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjati loyihasini kiritishi shartligi bayon qilinib, ulardan qanday tartib-tamoyillar o‘rin olishi zarurligi ham ko‘rsatilgan. Ya’ni, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, fuqarolarning tizimli muammolarini hal etish, davlat xaridlari shaffofligini oshirish talab



qilinmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali davlat xaridlari jarayonida raqobatni rivojlantirish, joriy yildan boshlab vazirlik va idoralar hamda ularning tizim tashkilotlarining ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurligi nazarda tutilmoqda. Sohoni rivojlantirish dasturlari uchun jalb qilinadigan grant va texnik ko'mak mablag'larining prognozi hamda uning aniq yo'nalishlarini belgilash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish guruhlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish tavsiya etilmoqda. Vazirlik va idoralarda hamda ular tarkibiga kiradigan tashkilotlar kesimida korrupsiya avj olgan sohalarda uning rivojlanish sabablari va shartlarini o'rganish asosida ushbu sohalarning har biriga "tashxis qo'yish" hamda korrupsiya omillarini bartaraf etish zarurati ta'kidlanmoqda. Farmonda tizim samaradorligini oshiruvchi boshqa ko'plab vazifalar ham aniq, mufassal bayon qilingan. Ushbu muhim hujjat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni zudlik bilan hal etishga qodir, innovatsion rivojlanishning zamonaviy, umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish va modernizatsiya qilish, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi[2].

Bugun kunda ijtimoiy media biznes stsenariysida, yangi mahsulotlarni sotish uchun muhim vositaga aylanib ulgurgan bo'lib, biznes modelidagi kontseptsiyalarni tushunmasdan va raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqa olmagan tashkilotlar noqulay ahvolda tushib qolishmoqdalar. Chunki, raqamli marketingning muqobil strategiyalarini shakllantirish bo'yicha hamda iste'molchi respondentlari uchun respondentlarning xususiyatlarini tahlilini adabiyotlardan izchil o'rganmasdan eski usullardan foydalanmoqda. Buning sababini yangi marketing strategiyasi tuzishga vaqt va mablag' sarflash hamda kerakli malakali mutaxassisni jalb qilish va uni izlash bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli marketing bozorga mahsulot yoki xizmatlarni ilgari surish uchun sotuvchilar tomonidan elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalanishdir[3].



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aziz Botirovich Mardonov Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi bo‘limi magistranti.
2. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/13848>
3. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Bank ishi va audit yo‘nalishi talabasi Tangriyev Abdurahmon Furqat o‘g‘li.

